

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**RAXMONOVA SAIDAXON RAXIMJON QIZI**

**TABIIY BO‘YOVCHI MODDALAR BILAN SELLYULOZA TARKIBLI**  
**MATERIALLARNI BO‘YASHNING SAMARALI TEXNOLOGIYASINI**  
**ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va**  
**xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

**Raxmonova Saidaxon Raximjon qizi**

Tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan selluloza tarkibli materiallarni bo‘yashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish..... 3

**Рахмонова Саидахон Рахимжон қизи**

Разработка эффективной технологии крашения целлюлозосодержащих материалов природными красителями ..... 23

**Saidakhon Rakhmonova, daughter of Rakhimjon**

Development of a sustainable dyeing method for cellulose-containing textiles using natural dyes..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 49

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**RAXMONOVA SAIDAXON RAXIMJON QIZI**

**TABIIY BO‘YOVCHI MODDALAR BILAN SELLYULOZA TARKIBLI**  
**MATERIALLARNI BO‘YASHNING SAMARALI TEXNOLOGIYASINI**  
**ISHLAB CHIQISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va**  
**xomashyoga dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)**  
**DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4708 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.titli.uz](http://www.titli.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Amirova Nodira Salikovna**

texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Matismailov Saypilla Lalashbayevich**

texnika fanlari doktori, professor

**Abdumavlyanova Ma'mura Kasimovna**

kimyo fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Tabiiy tolalar ilmiy- tadqiqot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.12.2019.T.08.01 – raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «20» yanvar soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: [titlp\\_info@edu.uz](mailto:titlp_info@edu.uz), Toshkent

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 265 raqam bilan ro'yhatga olingan). Manzil:100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.:(+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «06» yanvar kuni tarqatildi.  
(2026 yil «06» yanvar № 265 raqamli reestr bayonnomasi).

  
  
**X.H. Kamilova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

  
  
**A.Z. Mamatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

  
  
**Sh.Sh. Xakimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda to'qimachilik sanoatining pardoqlash jarayonlarida qo'llaniladigan asosiy kimyoviy moddalar bo'yovchi moddalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida raqobatbardosh, tashqi bozor talablariga to'liq javob bera oladigan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hozirgi davrning asosiy talablaridan biridir. Dunyo bo'yicha ishlab chiqariladigan bo'yovchi moddalarning 15–20% to'qimachilik sanoatida qo'llaniladi, shundan 1–2% ni tabiiy bo'yovchi moddalar tashkil etadi. Hindiston, Xitoy, Indoneziya, shuningdek tropik mintqa va Afrika mamlakatlari tabiiy bo'yovchi moddalarni yetkazib beruvchi hamda ulardan yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi asosiy eksportchi davlatlar hisoblanadi. Bugungi kunda mahalliy flora<sup>1</sup> asosidagi ikkilamchi resurslardan olingan tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yalgan, eksport o'rnini bosuvchi to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarni hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda to'qimachilik sanoati xomashyolaridan samarali foydalanish, resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida tabiiy bo'yovchi moddalar bilan to'qimachilik materiallarini bo'yash hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda tabiiy bo'yovchi moddalar olish va ular bilan turli tolali materiallarni bo'yash texnologiyalarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, an'anaviy retsepturalarni takomillashtirish, mahalliy flora o'simliklarining ikkilamchi resurslaridan tabiiy bo'yovchi moddalar olishning zamonaviy, ilmiy asoslangan texnologiyalarini yaratish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan yangi innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularning ilmiy asoslarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada keng turdagi sifatli tekstil mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliyashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinib, bunda to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish..<sup>2</sup> vazifasi belgilab berilgan<sup>2</sup>. Ushbu vazifani amalga oshirish, jumladan xomashyoni mahalliyashtirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy yetish, mahalliy xomashyolardan foydalanilgan holda raqobatbardosh va sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yash texnologiyalarini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

---

<sup>1</sup> Mohd Jameel, Khalid Umar, Tabassum Parveen...Extraction of Natural Products from Agro-industrial Wastes: A Green and Sustainable Approach. 197. DOI: <https://doi.org/10.1016/B978-0-12-823349-8.00018-6> // Copyright\_c 2023 Elsevier Inc. All rights reserved.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentabrdagi PF 556 son “To‘qimachilik va tikuvchilik va trikotaj korxonalarida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va ishlab chiqarishni yanada kengaytirish, shuningdek, eksportni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 2-sentabrdagi PF-155-son “To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 1-may 71-son “To‘qimachilik, kiyim-kechak va trikotaj sanoatini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkor» ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Jahonda tabiiy bo‘yovchi modda bo‘yashning yangi zamonaviy resurstejamkor texnologiya va texnikalar ishlab chiqish va sellyuloza tarkibli materyallarni bo‘yash jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha jahonning bir qator ilmiy tadqiqot insituti, Kaliforniya Universitetidagi biologik injenering kafedrası dotsenti T.E.Burova, German Krichevskiy, Yu.A.Kalinnikov, I.Yu.Vashurina, S.N.Butova, L.A.Ivanova, M.Z.Sultanova, H.A.Abdrahmanov, N.Akzhanov, A.S.Saduakas, A.B.Nurysh, M.X Domingo, J.M.Blankera, I.U. Garsiya, K.Kirtiradj, R.Gaykvad, L.Xakim, J.Agarval, K.Kumar, S.Chjan, kabi olimlar shug‘ullangan.

Respublikamizda ham tabiiy bo‘yovchi moddalarni olish va to‘qimachilik materyallarini bo‘yash sanoatini rivojlantirish uchun ko‘plab olimlar ish olib borishgan va hozirda xam bu ishlar davom etmoqda. Tabiiy bo‘yovchi moddalarni olish to‘qimachilik sanoatida qo‘llash bo‘yicha ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo‘nalishda M.Z.Abdukarimova, I.A.Nabiyeva, N.S.Amirova, F.R.Tashmuxamedov, va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ular tomonidan mahalliy floraning tabiiy bo‘yochi moddalarini va mahalliy flora ga asoslangan ikkilamchi resurslarni olish va ulardan foydalanishning eski an‘anaviy retseptlarini yanada qulayroq usul bilan takomillashtirish imkoniyatlari yetarlicha o‘tkazilmaganligini ko‘rsatdi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy kengashi Majlisining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari ga muvofiq amalga oshirildi, 2023-yil 28-dekabrdagi 5-sonli bayonnoma.

**Tadqiqotning maqsadi** mahalliy flora o‘simliklarining ikkilamchi resurslaridan olingan tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan sellyuloza tarkibli materiiallarni bo‘yashning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

mahalliy flora o'simliklari va ikkilamchi resurslardan ko'p miqdorda bo'yovchi modda olinishini ta'minlash maqsadida turli jadallashtiruvchilar qo'llagan holda tabiiy bo'yovchi moddani ekstraksiyalash jarayonini takomillashtirish;

tajribani matematik rejalashtirish usuli yordamida sellyuloza tolali materiallarni tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yashning muqobil, ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish;

paxta tarkibli trikotaj va maishiy qog'oz (salfetka) turlarini mahalliy flora o'simliklari va ikkilamchi resurslar asosidagi tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yashning resurstejamkor ilmiy-asoslangan texnologiyasini takomillashtirish;

zamonaviy tahlil usullari yordamida tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yalish jarayonida tolalardagi strukturaviy va molekulalararo o'zgarishlarni o'rganish;

dissertatsiya ishining ilmiy tadqiqotlar natijalarini sinovdan o'tkazish va ishlab chiqarishga joriy etish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida sellyuloza tarkibli materiallar, hususan, paxta ipli trikotaji, maishiy qog'oz (salfetka), o'simlik xom ashyosi sifatida anor po'stlog'i, yong'oq yashil po'stlog'i va sofora dukkagi olingan.

**Tadqiqotning predmeti** – mahalliy flora o'simliklarining ikkilamchi resurslaridan tabiiy bo'yovchi modda ekstraksiyalash jarayoni, ular bilan sellyuloza tolali materiallarni bo'yashning texnologik parametrlari, bo'yash vannasining komponentlarini tolali substrat bilan o'zaro ta'sir mexanizmi, bo'yalgan namunalarning sifat ko'rsatkichlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida quyidagi zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari qo'llanilgan: spektrokolorimetriya, IQ-Fure spektroskopiya, rentgenstrukturali, element tahlil, matematik tahlil, hisoblash matematikasining kichik kvadrat usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

anor po'stlog'i, yong'oq-yashil po'stlog'i, safora dukkalaridan tabiiy bo'yovchi moddalarni xromofor guruhlarini saqlagan holda mass-spektroskopik usul asosida ekstraksiya qilishning samarali usuli ishlab chiqilgan;

paxta tarkibli trikotaj va maishiy qog'ozini (salfetka) mahalliy flora o'simliklarining ikkilamchi resurslaridan olingan tabiiy bo'yovchi moddalar bilan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni ta'minlovchi bo'yashning texnologik rejimlari ishlab chiqilgan;

nazariy va tajribaviy tadqiqotlar asosida tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yash va xurushlashda rang intensivligi va mustahkamligini ta'minlaydigan tola va bo'yovchi moddalarning funksional va xromofor guruhlararo kimyoviy bog'liqlik mexanizmi aniqlandi;

namunalarni rang intensivligi va mustahkamligiga ta'sir etuvchi bo'yash va turli tabiatli xurushlovchilar bilan bo'yashning ratsional texnologiyasini ishlab chiqish hamda bo'yalgan namunalarning yuqori darajasi va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlovchi bo'yashning ratsional texnologik omillari tajribani matematik rejalashtirish usullari asosida aniqlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mahalliy flora o'simliklarining ikkilamchi resurslaridan tabiiy bo'yovchi modda chiqishini anor po'stlog'idan 35-87,5% ga, yong'oq meva po'stidan 100-166% ga va safora dukkaklaridan 42-61% ga oshirishni ta'minlaydigan ekstraksiya tarkiblari va usullari ishlab chiqilgan;

tabiiy bo'yovchi moddani transportabelligi, uzoq muddat saqlanishini hamda barcha bo'yaladigan partiyalarda materiallarning rang tuslarining takrorlanishini ta'minlovchi kukun va pasta shaklida olish texnologiyasi taklif qilingan;

transportabelligini, uzoq muddat saqlanishini va barcha bo'yaladigan partiyalarda materiallarning rang tuslarining takrorlanishini ta'minlaydi kukun va pasta shaklidagi tabiiy bo'yovchi ni olish texnologiyasi taklif etilgan;

paxta tarkibli trikotajini tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yashning ratsional, ekologik va iqtisodiy samarali bo'yash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

maishiy qog'oz (salfetka) assortimentlarini tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yashning resurstejamkor, ekologik va iqtisodiy samarali bo'yash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi birinchi navbatda nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining mosligi, aprobatsiya va qo'llash natijalarining ijobiyligi, shuningdek, natijalarni qiyosiy baholash mezonlariga ko'ra ularning adekvatligiga, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va qiyosiy tahlildagi ustunligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mahalliy flora o'simliklarining ikkilamchi resurslaridan tabiiy bo'yovchi moddalarni ularning xromofor guruhlarini saqlagan holda ekstraksiya qilishning samarali usuli yaratilganligi bilan, paxta tarkibli trikotaj va maishiy qog'ozlarni (salfetka) tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yashning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni ta'minlovchi texnologik rejimlarini ishlab chiqish, nazariy va tajribaviy izlanishlar asosida tola va bo'yovchi moddalarning funksional va xromofor guruhlararo kimyoviy bog'liqlik mexanizmlarini aniqlash orqali tabiiy bo'yovchilar bilan bo'yash va bo'yashning intensivligi va mustahkamligini ta'minlash, tajribani matematik rejalashtirish asosida namunalarni rang intensivligi va mustahkamligiga ta'sir etuvchi bo'yash va turli tabiatli xurushlovchilar bilan bo'yashning ratsional texnologiyasini ishlab chiqish hamda bo'yalgan namunalarning yuqori darajasi va sifat ko'rsatkichlarini ta'minlovchi bo'yashning ratsional texnologik omillarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa o'simlik xomashyosidan tabiiy bo'yovchi moddalarni olish jarayonini takomillashtirishga asoslangan ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bog'liq. Bunda ularning yuqori unumdorligini, shuningdek, paxta tarkibli trikotajni va maishiy qog'oz (salfetka) turlarini bo'yash texnologiyasini yaratadi, to'qimachilik va qog'oz mahsulotlari turlarini kengaytirishni ta'minlaydi, ekologik toza, aholi orasida, xorijda va turizm sohasida talab yuqori bo'lgan yuqori sifatli, eksklyuziv mahsulotlar, shuningdek, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy samaradorlikni yaratish, ularning



ishlab chiqarish sharoitlarini yaxshilash, atrof-muhit va oqova suvlarga salbiy ta'sirini kamaytirish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Strukturaviy va molekulalararo o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'simliklar va sellyuloza tolalarini bo'yash tabiatini o'rganish natijalari asosida sellyuloza tolali materiallarni tabiiy bo'yochi moddalar bilan bo'yashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalar asosida:

anor po'stlog'i, yong'oq-yashil po'stlog'i va safora dukkagi asosida olingan tabiiy bo'yovchi moddalarni olish texnologiyasi "UNITEX" MCHJ, "Aya Global Tex" MCHJ va "Internationl paper" MCHJ korxonalarida joriy yetilgan. ("O'ztoqimachilik sanoati" uyushmasining 16 yanvar 2024 yil №03/25-100 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maishiy (salfetka) qog'oz turlarini sariqdan yashil ranggacha bo'lgan turli xil ranglarda bo'yash sintetik bo'yochi moddalar o'rniga tabiiy bo'yochi moddalardan foydalangan holda unumdorlikni oshirishga, bu yesa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, qog'oz ishlab chiqarishda 23,4% foyda olishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 2 ta Xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, 3 tasi xorijiy 2 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi "Kirish", 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi kompyuterda terilgan 115 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Selluloza tolali materiallarni mahalliy flora asosidagi tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yash jarayonining zamonaviy texnologiyasi"** deb nomlangan birinchi bobida paxta tolasi va u asosida trikotaj ishlab chiqarish bo'yicha ilmiy izlanishlar sharhi keltirilgan. Shuningdek, mahalliy floradagi bo'yoqbop o'simliklari bo'yicha statistik tahlillar, ulardan turli shakldagi tabiiy bo'yovchi moddalarni olish, ularni ekologik me'yorlarni inobatga olgan holda to'qimachilik, qog'oz va boshqa mahsulotlarni bo'yashda qo'llash imkoniyatlari keltirilgan. Dissertatsiyaning **"Tadqiqot obyektlarini tanlash va asoslash, ularning fizik-kimyoviy, koloristik va mexanik xususiyatlarini aniqlash usullari"** nomli ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektlarining tasnifi, o'simlikdan bo'yovchi moddani

ekstraksiyalash vannasining tarkibi va usullari, ular bilan paxta ipli trikotajni bo'yash va xurushlash, maishiy qog'ozni bo'yash, tajriba natijalarini tahlil uslublari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahalliy flora asosidagi tabiiy bo'yovchi moddalar bilan sellyuloza tolali materiallarni ekstraksiya qilish va bo'yash jarayonini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida mahalliy flora o'simliklaridan tabiiy bo'yovchi moddalarni ko'p miqdorda olinishini ta'minlovchi turli jadallashtiruvchilar qo'llagan holda ekstraksiyalash jarayonlarini, ular bilan sellyuloza tolali materiallar, ma'ishiy qog'ozni bo'yashning ilmiy-asoslangan muqobil texnologiyasini takomillashtirish imkoniyatlari, tajribalarni matematik modellash, fizik-kimyoviy tahlillar va ularning muhokamalari keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Sellyuloza tolali materiallarni yoki ulardan tayyorlanadigan buyumlarni mahalliy flora asosidagi tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yashning amaliy va iqtisodiy samaradorlik jihatlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida mahalliy flora asosida tabiiy bo'yovchi moddalarni ko'p miqdorda ekstraksiyalash, ular bilan sellyuloza tolali materiallarni bo'yashning ilmiy asoslangan, muqobil texnologiyalaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi hisoblab chiqilgan va takomillashtirilgan texnologiyalarning ekologik xavfsizligi asoslab berilgan.

Tadqiqotlarning **birinchi bosqichida** o'simlikdan ekstraksiyalanuvchi bo'yovchi moddaning miqdorini oshirishga ta'sir etuvchi jadallashtiruvchi tuzlarning ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot uchun mamlakatimizda ko'p miqdorda tarqalgan, shuningday oziq-ovqat sanoatini chiqindisi bo'lgan mahalliy floraning bo'yoqbop o'simliklari sifatida anor po'stlog'i, yong'oqning yashil po'stlog'i va safora dukkaklari tanlangan.

Anor po'stlog'i, yong'oqning yashil po'stlog'i va safora dukkaklarining tarkibida katexinlar, fitonsidlar, katexin tabiatli birikmalar va tanin kabi bo'yoqbop moddalarning borligi ular asosidagi bo'yovchi modda molekulalarini sellyulozaning funksional guruhlari bilan mustahkam kovalent, shuningday vodorod va boshqa kimyoviy bog'lar orqali bog'lanishi haqida tahmin qilinadi.

O'simlik xomashyosidan tabiiy bo'yovchi moddani ekstraksiyalash jarayonini jadallashtirishning maqsadi - bo'yovchi moddasini o'simlik xomashyosidan olinishi hajmini ko'paytirishdir, o'z holida bu iqtisodiy samaraga erishish, hamda ishlab chiqariladigan ekologik to'qimachilik mahsulotlarini hajmini aniqlash va rejalashtirish imkonini beradi.

Ekstraksiya jadallashtiruvchilar (J) sifatida 5 g/l konsentratsiyali NaCl (J1) va Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> - (J2) tuzlari tanlandi. Bo'yovchi modda suvda qaynatish orqali ekstraksiyalangan, so'ng parlantirish yordamida qovushqoqlikning aniq nazorat nuqtasiga mos holda pasta holatgachon quyultirilgan. Uning kukun shaklida olish uchun bo'yovchi modda leofil usulda quritilgan. Avval o'simlik xomashyosidan bo'yovchi modda olish miqdoriga ekstraksiyaning turli xossalari jadallashtiruvchilarining ta'siri o'rganilgan. Barcha o'simliklarda J2 qo'llanilganda J1 va JS larga nisbatan ko'proq miqdorda bo'yovchi modda olish kuzatilgan.



**1-rasm. O'simlik 1 kg xomashyosidan ekstraksiyalangan bo'yovchi modda miqdori**

Olingan natijalarga ko'ra, barcha o'simliklardan ekstraksiyalashda turli jadallashtiruvchilari qo'llanilganda ularning tabiatiga ko'ra ko'p xajimda bo'yovchi modda olinish oshirdi, bu esa o'z holida resurstejamkor texnologiya tadqiq qilishga imkon beradi. Rasmda keltirilgan natijaga ko'ra yong'oq va anor po'stlog'ining soforaga nisbatan bo'yoqbopligi yuqoridir. Shu bilan bir qatorda o'simlikdan olinadigan bo'yovchi modda miqdoriga ta'sir etuvchi ekstraksiya sharoiti va jadallashtiruvchilar tabiatini ham inobatga olish kerak.

O'simlikdan olinadigan bo'yovchi modda miqdoriga J2 ko'proq ta'sir etishini inobatga olgan holda barcha o'simliklardan olingan bo'yovchi moddalarning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga uning ta'siri o'rganildi.

**1-jadval**


**Ekstraksiya jadallashtiruvchi - J2 ning tabiiy bo'yovchi moddalarning fizik-kimyoviy xususiyatlariga ta'siri**

J2 konsentratsiyasi, g/l	rN - muhit	Qoldiq vannaning bo'yochi modda miqdori, C (g/kg)	Bo'yovchi modda zichligi, g/dm <sup>3</sup>	Bo'yovchi modda massasi, gr
Anor po'stlog'i				
0,5	5,0	2,06	0,9009	15
1	5,7	4,13	1,0188	16
2	5,9	6,02	1,0681	16
3	6,5	9,18	1,1555	18
4	8,0	9,25	1,1798	18
5	8,3	9,98	1,4317	18

Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar shuni tasdiqlaydiki, ekstraksiya jadallashtiruvchisining konsentratsiyasi ortishi bo'yovchi modda muhitining rN qiymatini oshiradi, bu esa bo'yalgan mato namunalarning rang intensivligi darajasining ortishiga olib keladi. Buning sababi - bo'yovchi modda molekullari bilan tola funksional guruhlari o'rtasida kimyoviy jihatdan mustahkam bog'lanishlar sonining ko'payishidir. Shuningdek, J-2 konsentratsiyasi ortishi bilan bo'yovchi moddaning pastasimon shakldagi zichligi ham ortadi, bu esa kukun holatidagi bo'yovchi modda massasining ko'payishiga mos keladi. Shunga o'xshash natijalar yong'oq yashil po'stlog'i va safora dukkaklaridan olingan bo'yovchi moddalarda ham

kuzatildi.

Keyingi bosqichda tabiiy bo'yovchi moddalarni suvli eritma, pastasimon holat va kukun shaklida olish imkoniyatlari aniqlangan. Suvli eritma bo'yovchi modda eritmalarining konsentratsiyasi aniqligini ta'minlasa-da, saqlash muddati jihatidan boshqa shakllarga nisbatan qisqaroqdir. Bo'yovchi moddaning kukun holati saqlash uchun eng qulay shakl hisoblanadi, biroq to'qimachilik materiallarini bo'yashda rangning notekis chiqish ehtimoli yuqori bo'ladi. Buni bartaraf etish uchun qo'shimcha kimyoviy jarayonlar talab etiladi, bu esa mahsulotning ekologik darajasini kamaytiradi va tannarxini oshiradi. Shuning uchun bo'yovchi moddani sifatli bo'yash hamda uzoq muddat saqlash nuqtai nazaridan, leofil (muzlatib quritish) usuli bilan olingan pastasimon shakl eng maqbul hisoblanadi. Leofil quritishidan keyin bo'yovchi modda kukunining organik bo'yovchi modda strukturasining buzilishi (ko'mirlanishi)ni oldini olish maqsadida, element tahlili yordamida ularning element tarkibi, miqdori va xususiyatlari aniqlangan, shuningdek, leofil va konvektiv quritish usullari bilan olingan tabiiy bo'yovchi moddalarning tarkibi, saqlanish darajasi hamda bo'yovchi bop moddalari miqdori solishtirilgan.



**2-rasm. Tabiiy bo'yovchi moddalarning element tahlili**

Keltirilgan tahlil natijalari (2-rasm) asosida o‘simlik tarkibida N,C,H, O elementlari, ya’ni organik bo‘yoqbop moddalari — yuglon, flavonoid, katexin, kvertsitin, kemferol, tanin mavjudligi aniqlangan. Bu esa leofil usulda olingan tabiiy bo‘yovchi modda kukunida bo‘yoqbop moddalarning saqlanib qolganligini isbotlaydi (2-jadval).

2-jadval

Tabiiy bo‘yovchi moddalarning element tahlili

Ele- mentlar	anor po‘st log‘i	anor po‘stlog‘i + J2		yong‘ oq yashil po‘st log‘i	yong‘oq yashil po‘stlog‘i + J2		safora dukkagi	safora dukkagi + J2	
		LQ*	QS*		LQ*	QS*		LQ*	QS*
N	0,56	0,57	0,49	0,32	0,36	0,32	0,59	0,56	0,51
C	41,21	41,76	37,25	27,01	26,62	23,98	43,33	42,29	39,75
H	5,3	4,82	4,04	3,62	3,24	3,02	5,83	5,54	4,96
O	7,74	7,03	5,9	1,33	1,19	0,87	9,10	8,64	7,01

\* LQ — leofil quritish, QS\* — konvektiv quritish

Keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, leofil quritish usuli bilan olingan barcha bo‘yovchi o‘simliklarda bo‘yovchi moddalar miqdori konvektiv usulda olinganlarga nisbatan yuqori. Bu esa, o‘z navbatida, bo‘yovchi modda tarkibidagi barcha organik birikmalarning aynan leofil quritish jarayonida to‘liq saqlanib qolishini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning **ikkinchi** bosqichida paxta tolasidan tayyorlangan trikotaj matolarni tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yashning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqish imkoniyati o‘rganildi. Ushbu texnologiya trikotaj matoning turli partiyalarida bir xil rang tusini takrorligini ta‘minlashi kerak, bu esa tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan to‘qimachilik mahsulotlarini bo‘yash jarayonining muhim kamchiliklaridan biridir. Tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yash jarayoni uch xil usulda amalga oshirildi:

- 1-usul - bo‘yash – xurushlash;
- 2-usul - bir vannali birlashtirilgan bo‘yash va xurushlash;
- 3-usul - xurushlash – bo‘yash.

Uchta bo‘yash usuli jadallashtiruvchisiz (JS), jadallashtiruvchi NaCl (J-1), jadallashtiruvchi Na<sub>2</sub>CO<sub>3</sub> (J-2) asosida olingan tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan turli xil xurushlovchi tuzlar (KAl(SO<sub>4</sub>)<sub>2</sub>, CuSO<sub>4</sub>, K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub>) ishtirokida paxta tolali trikotajlarni boyash jarayoni amalga oshirildi.

Paxta ipli trikotajni anor po‘stlog‘i asosidagi bo‘yovchi modda bilan bo‘yash jarayonini o‘rganish natijasiga ko‘ra J2 li bo‘yovchi modda bilan 1 usulda bo‘yalganida yuqoir koloristik natijaga erishilgan. Bo‘yalgan namunalarning ho‘l ishlovlariga va ishqalanishga rang mustahkamligi yuqori 4 va 5 ballarni namoyon qilgan. Bo‘yovchi modda molekulasi va tolaning funksional guruhlari orasida koordinatsion va molekulalararo bog‘lar hosil bo‘lishi tahmin qilingan.

Bu usulning afzalligi bo‘yovchi modda molekulalari tola substratining funksional guruxlarida fiksatsiyalangan holda o‘ziga xos himoya qatlamini hosil qilib,

sellyuloza tolasini xurushlovchi tuzlarning destruksion ta'sirlaridan himoya qilishidadir. Boshqa usulda bo'yalgan namunalarga nisbatan rang intensivligining pastroqligi ushbu usulning kamchiligidir.

So'ng maqbul bo'yash usuli, jadallashtiruvchilar va xurushlovchi tuzlarni to'g'ri tanlash maqsadida ularning rang intensivligiga ta'siri aniqlangan. Natijaga ko'ra J2 li bo'yovchi moddalar bilan barcha xurushlovchi tuzlar ishtirokida bo'yalgan namunalarda yuqori rang intensivligi kuzatilgan.


Ishning davomida yong'oqning yashil po'stlog'i asosida olingan tabiiy bo'yovchi modda bilan ratsional bo'yash texnologiyasini aniqlash uchun analogik izlanish olib borilgan. Oligan natijalarga ko'ra barcha ekstraksiya usulida olingan bo'yovchi moddalar va xurushli tuzlar ishtirokida bo'yash jarayonining 2 usulida (birlashtirilgan bo'yash va xurushlash) yuqori koloristik natijalar olingan. Ushbu usulning afzalligi ikkita jarayonni bilashtirish hisobiga talab etilgan kolristik ko'rsatkichlari saqlangan holda iqtisodiy smaraga erishishdir. Usulning kamchiligi birinchi bo'yash usuliga nisbatan rang intensivligi nisbatan pastroqligi. Bu esa bo'yovchi modda molekulasi bo'yash eritmasi ichida xurushli tuz bilan o'zaro ta'sirlashishi natijasida tola g'ovagiga diffuziyasini qiyinlashtiruvchi yirik aglomeratlar hosil qilishi bilan izohlanadi. Natijada tola bilan koordinatsion bog'langan molekulalar soni kamayib ketadi. Talab darajasidagi koloristik ko'rsatkichlarga asosan tola yuzasiga fiksatsiyalangan bo'yovchi modda molekulalari hisobiga erishiladi. Rangning ishqalanishga chidamliligi pastroqligi esa bo'yovchi modda molekulalari tola bilan Vann der-Vaals va vodorod bog'lar orqali bog'lanish bilan bir qatorda eritmaga ham o'ta boshlashi rang intensivligi tushishiga olib keladi. shuningday bo'yovchi modda va xurushli tuzlar orasidagi lak hosil bo'lish reaksiyasi ham bo'yash jarayoni nazoratini murakkablashtirib yuboradi.

Olingan natijalarga ko'ra ekstraksiya usulida olingan bo'yovchi moddalar va xurushli tuzlar ishtirokida bo'yash jarayonlarini taqqoslaganda aynan J2 igtirokida olingan tabiiy bo'yovchi modda bilan yukori rang intensivligi kuzatilgan.


Yuqoridagi izlanishlarga mos xolda so'ng asosida olingan tabiiy bo'yovchi modda bilan bo'yash jarayoni o'rganilganda quyidagi natijalar olingan: jadallashtiruvchisiz olingan tabiiy bo'yovchi modda bilan paxta ipli trikotaj 3 usulida (xurushlash-bo'yash),  $KAl(SO_4)_2$  bilan xurushlanganida yuqori rang intensivlik ko'rsatkichlariga erishilgan.

Trikotaj namunasi avval xurushlanib so'ng bo'yaladigan ushbu usulda xurushlovchi tuz avval tolaning faol markazlariga, keyingi bo'yash jarayonida bo'yovchi modda molekulasi tola bilan koordinatsion bog' hosil qilishi hisobiga bog'lanadi, bunda "tola-xurush-bo'yovchi modda" kompleksini hosil bo'ladi. Shuning uchun substratda yuqori intensivlik va mustahkamlikga ega bo'lgan rangi hosil bo'ladi. Ishlab chiqarish texnologiyasi nazariyasiga zid holda bo'lsada ushbu usul ham ijobiy deb tavsiya etiladi, va bu xurushlovchi tuzlarning konsentratsiyasi an'anaviydagiga nisbatan 10-15% ga kamaytirilganiligi substrat destruksiyasiga ta'sir etmasligi bilan asoslanadi. Ushbu xulosalar bo'yalgan namunalarning fizik-mexanik tekshiruvlarning ijobiy natijasi, namuna tolalarining shikastlanmaganligi bilan tasdiqlanadi.


J1 va J2 ishtirokida ekstraksiyalangan tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yash jarayoni natijasiga ko'ra 2 usuli bilan bo'yalganda va mutanosib ravishda  $K_2Cr_2O_7$  xurushlovchi tuzlar qo'llanilganida yuqori rang intensivlik ko'rsatkichlariga erishilgan. Bo'yalgan namunalarning ranglari ho'l ishlovlar va ishqalanishga chidamliligi yuqori 5 ball natija ko'rsatganligi esa bo'yovchi modda va tola orasida molekulararo, bo'yovchi modda va xurushlovchi tuzlar orasida esa koordinatsion bog'lar hosil bo'lganligidan dalolat beradi.



a)



b)



v)

### 3-rasm. Tabiiy bo'yovchi moddalar bilan boyalgan paxta tolali trikotaj matolar.


a) anor po'stlog'i    b) yong'oq  
yashil po'stlog'i    c) safora dukkagi

Natijalar 3-rasmda diagramma ko'rinishida keltirilgan.


Anor po'stlog'idan J2 ta'sirida olingan bo'yovchi modda bilan paxra tolali trikotaj matosini bo'yash jarayonida barcha xurushlovchi tuzlarini taqqoslash natijasida rang intensivligining eng yuqori qiymatlari  $CuSO_4$  qo'llanilganda kuzatildi.

Yong'oq-yashil po'stlog'idan J2 ta'sirida olingan bo'yovchi modda bilan paxra tolali trikotaj matosini bo'yash jarayonida barcha xurushlovchi tuzlarini taqqoslash natijasida rang intensivligining eng yuqori qiymatlari  $CuSO_4$  qo'llanilganda kuzatildi. Safora dukkagidan J2 ta'sirida olingan bo'yovchi modda bilan paxra tolali trikotaj matosini bo'yash jarayonida ham barcha xurushlovchi tuzlarini taqqoslash natijasida rang intensivligining eng yuqori qiymatlari  $CuSO_4$  qo'llanilganda kuzatildi.

Olingan natijalarga asoslanib, 4-rasmda paxta tolali trikotaj matosini tabiiy bo'yovchi moddalar bilan uch xil usulda bo'yash texnologiyasi taklif etildi.




a)



b)





#### 4-rasm. Bo'yash jarayonining texnologik sxemasi

- a) 1- usul: bo'yash-xurushlash,  
b) 2- usul: bir vannali birlashtirilgan bo'yash va xurushlash,  
c) 3-usul: xurushlash-bo'yash

v)

Anor po'stlog'iga asoslangan barcha turdagi ekstraksiya qilingan tabiiy bo'yovchi moddalar uchun ikki vannali bo'yash usuli qat'iy tavsiya etiladi. Unda dastlab bo'yash jarayoni olib borilib, keyin  $\text{CuSO}_4$  yordamida xurushlash amalga oshirildi (3-jadval).

Yong'oq-yashil po'stloqlariga asoslangan barcha turdagi bo'yovchi moddalar uchun esa birlashtirilgan bo'yash va xurushlash usuli ma'qul, biroq J-2 yordamida ekstraksiya qilingan bo'yovchi moddalar uchun  $\text{CuSO}_4$ , qolgan variantlar uchun esa  $\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$  xurushlash tuzi tavsiya qilindi.

#### 3-jadval


##### Tabiiy bo'yovchi moddalar xususiyatiga qarab bo'yash usullari

Bo'yovchi modda	Bo'yash usuli	Hurushlash tuzi
Anor po'stlog'i		
JS	1 usul: bo'yash - xurushlash	$\text{CuSO}_4$
J-1	1 usul: bo'yash - xurushlash	$\text{CuSO}_4$
J -2	1 usul: bo'yash - xurushlash	$\text{CuSO}_4$
Yong'oq-yashil po'stlog'i		
JS	2 usul: Birlashtirilgan bo'yash va xurushlash	$\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$
J -1	2 usul: Birlashtirilgan bo'yash va xurushlash	$\text{CuSO}_4$
J -2	2 usul: Birlashtirilgan bo'yash va xurushlash	$\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$
Safora dukkagi		
JS	3 usul: Xurushlash - bo'yash	$\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$
J -1	2 usul: Birlashtirilgan bo'yash va xurushlash	$\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$
J -2	2 usul: Birlashtirilgan bo'yash va xurushlash	$\text{KAl}(\text{SO}_4)_2$

Safora dukkagidan olingan tabiiy bo'yovchi moddalar esa turli ekstraksiya intensivliklarining bo'yash usuli tanloviga sezilarli ta'siri kuzatildi. Buning sababi sifatida safora dukkagi tarkibidagi flavonoidlar (kversitin, kempferol, rutin, genistein) bo'yovchi modda va tolalar orasida hosil bo'ladigan molekulalararo va kimyoviy bog'lanishlar soniga ta'sir etishi mumkinligi bilan izohlanadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish texnologiyalari uchun: to'q rang tuslarini olishda 1-usul (avval bo'yash, so'ng xurushlash) va 3-usul (avval xurushlash, keyin bo'yash) tavsiya etiladi; och va o'rta rang tuslari uchun esa iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan birlashtirilgan bo'yash va xurushlash usuli ma'qul hisoblanadi. O'tkazilgan fizik-mexanik sinovlar natijasida paxta tolali trikotajni tabiiy bo'yovchi moddalar bilan bo'yash uning mustahkamlik xususiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Dastlabki uzilish mustahkamligi bilan solishtirganda, paxta tolali trikotajning anor po'stlog'i asosida olingan bo'yovchi modda bilan bo'yalgan namunalarida mustahkamlik o'rtacha 5,03 va 6,93%, yong'oq yashil po'stlog'iga asoslangan bo'yovchi modda bilan bo'yalgan namunalarida 5,96 va 8,51%, saforaga asoslangan bo'yovchi modda bilan bo'yalgan namunalarida esa 22,03 va 6,17 foizga (mos ravishda arqoq va asos yo'nalishlarida) oshishi kuzatildi (5-rasm). Ko'rinib turibdiki, molekulalararo va koordinatsion bog'lanishlar sonining ortishi paxta tolali trikotajning mustahkamlik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga yordam berdi.

Keyingi bosqichda, paxta tolali trikotajni anor po'stlog'i, yong'oq-yashil po'stlog'i va safora dukkagi asosidagi bo'yovchi moddalar bilan bo'yash jarayonida tola tuzilishida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni o'rganish maqsadida, Mak-Ben-Bakr vakuum qurilmasida turli adsorbentlarda gaz va suyuqlik bug'larining adsorbsiya izotermalari aniqlab chiqildi (5-rasm).




